

## 2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatida 2904 ta yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 905 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3163 ta (22,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17527 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentabr holatiga 17527 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 20,6 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,3 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


	Umumiy soni, birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>14364</b>	<b>17527</b>	<b>122,0</b>	<b>100</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2179	2604	119,5	14,9
Sanoat	2210	2846	128,8	16,2
Qurilish	1326	1801	135,8	10,3
Savdo	2725	3618	132,8	20,6
Tashish va saqlash	513	598	116,6	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	982	1135	115,6	6,5
Axborot va aloqa	191	197	103,1	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	197	248	125,9	1,4
Boshqa turlari	4041	4480	110,9	25,6

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5379 ta), Sharof Rashidov (2880 ta), Zomin (1446 ta), G'allaorol (1336 ta) va Forish (1216 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (384 ta), Zafarobod (482 ta) hamda Arnasoy (550 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16730 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3096 ta (22,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,6 % savdo, 16,3 % sanoat, 14,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,5 % qurilish, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi***(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5130 ta), Sharof Rashidov (2805 ta), Zomin (1351 ta), G'allaorol (1319 ta) va Forish (1160 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (372 ta), Zafarobod (413 ta) hamda Arnasoy (550 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-avgust oylarida 2904 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 905 taga ko'pdir.

### Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (861 ta), Sharof Rashidov (512 ta), Zomin (256 ta) va G'allaorol (226 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zafarobod (63 ta), Yangiobod (74 ta), Arnasoy (104 ta), Mirzacho'l (107 ta), Do'stlik (116 ta) hamda Paxtakor (121 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (891 ta), sanoat (626 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (430 ta) va qurilish (356 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (40 ta) hamda tashish va saqlash (76 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-sentabr holatiga 13621 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4222 ta, oilaviy korxonalar – 701 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 8373 ta va boshqalar 375 tani tashkil etgan.



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 177 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga yoki 67,0 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 177 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Jizzax shahri (73 ta), Forish (19 ta), Zomin (14 ta), Sharof Rashidov va G`allaorol (13 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho`l (1 ta), Zarbdor (3 ta), Baxmal hamda Do`stlik tumanlarida (5 ta) to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 119 tasi qo'shma korxonalar, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>177</b>	<b>100</b>
Jizzax shahri	73	41,2
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	8	4,5
Baxmal	5	2,8
G'allaorol	13	7,3
Sharof Rashidov	13	7,3
Do'stlik	5	2,8
Zomin	14	7,9
Zarbdor	3	1,7
Zafarobod	6	3,4
Mirzacho'l	1	0,6
Paxtakor	8	4,5
Forish	19	10,7
Yangiobod	9	5,3


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 50 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Jizzax shahar (16 ta yoki jamidagi ulushi 32,0 %), Forish (8 ta yoki 16,0 %) va Zomin tumanlari (5 ta yoki 10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Zarbdor va Paxtakor (1 ta yoki 2,0 %), Baxmal va Sharof Rashidov (2 ta yoki 4,0 %) hamda Zafarobod tumanlari (3 ta yoki 6,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-avgust oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 22 ta, Rossiya Federatsiyasi - 11 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (28 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10 ta), qurilish (5 ta), savdo (4 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (1 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (1 ta) hamda tashish va saqlashda (1 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13578 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentabr holatiga qaraganda 28,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4406 tasi (32,4 %) Jizzax shahri, 2460 tasi (18,1 %) Sharof Rashidov, 1055 tasi (7,8 %) G'allaorol hamda 1050 tasi (7,7 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13578 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3430 tasi (25,3 %) - savdo, 2698 tasi (19,9 %) - sanoat, 2413 tasi (17,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1747 tasi (12,9 %) - qurilish, 1068 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 570 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 162 tasi (1,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 161 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1329 tasi (9,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 2739 dan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 69,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (824 ta), Sharof Rashidov (477 ta), Zomin (251 ta) va Gallaorol tumanlari (216 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Zafarobod (57 ta), Yangiobod (65), Mirzacho'l (98 ta) hamda Arnasoy (100) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (891 ta), sanoatda (626 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (428 ta) va qurilishda (356 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (28 ta), axborot va aloqada (37 ta) hamda tashish va saqlashda (76 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentabr holatiga 740 tani tashkil etib, ulardan 701 tasi yoki 94,7 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 57,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,3 % yoki 303 tasi sanoat, 20,7 % yoki 145 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 15,3 % yoki 107 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,0 % yoki 84 tasi savdo, 0,7 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki

2 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,4 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>205</b>	<b>100</b>
Jizzax shahri	276	23,9
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy		
Baxmal	3	1,5
G'allaorol	20	9,8
Sharof Rashidov	49	23,9
Do'stlik	14	6,8
Zomin	31	15,1
Zarbdor	12	5,9
Zafarobod	6	2,9
Mirzacho'l	4	2,0
Paxtakor	5	2,4
Forish	7	3,4
Yangiobod	5	2,4

2019-yil yanvar-avgust oylarida 205 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 93,4% ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Jizzax shahri (49 ta), Sharof Rashidov (49 ta), Zomin (31 ta) va G'allaorol tumanlari (20 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Baxmal

(3 ta), Mirzach'ol (4 ta), Paxtakor (5 ta) hamda Yangiobod (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi



Tashish va  
saqlash



Qurilish



Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish



Axborot va aloqa



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 54,1 % yoki 111 tasi sanoat, 16,1 % yoki 33 tasi savdo, 13,7 % yoki 28 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 10,7 % yoki 22 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4,9 % yoki 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
Tel.:71-230-83-65 (66)